

QUYONLARNING TERI MAHSULDORLIGI.

assistent. **O'.A.Rahmonov,**
talaba **O.Z.Ergasheva U.S.Ahmedova**
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Annatsiya. ushbu maqolada quyonlar teri qoplamasini tuzilishi, xususiyatlari bo'yicha adabiyotlar va xususiy tadqiqotlar natijalari tahlil qilinib, shu asosida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit suzlar: teri, sezish, moddalar almashinuvi, kliy, qiltiq, tivit tolalari, tullash.

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 26 fevraldagi "Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohalarida tayyor mahsulot ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-143-sonli qarori bilan 2026 yilga qadar sohada tayyor mahsulotlar hajmini 2,8 barobarga oshirish belgilab berilgan. Ayni maqsadlarga esa albatta respublika hududlarida terini qayta ishlashga hamda tayyor charm-poyabzal va mo'yna mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kichik sanoat zonalarini tashkil etish orqali erishiladi.

Quyon Veterinariya va Medisinada, xatto kosmanavtikada eng qulay laboratoriya hayvoni sifatiga foydalanib kelinmoqda.

Yurtimiz xo'jaliklarida quyon asosan go'sht, teri va mo'yna uchun urchitiladi. Mamlakatimizning barcha xududlarida yetishtiriladigan turli xil mo'ynalar ichida quyon mo'ynasi salmoqli o'rinni egallaydi. Quyonlarning sifatli terisidan keladigan daromad go'shtidan Keladigan daromaddan deyarli kam bo'lmaydi. Shuning uchun quyonni teri yoki go'sht uchun so'yishdan qat'iy nazar terining sifatiga ahamiyat berish lozim.

Teri qoplami – (*Integumentum commune*) quyonlar tanasini tashqi tomondan o'rab turadigan, murakkab tuzilgan parda bo'lib, hayot uchun juda muhim organ bo'lib, organizmni tashqi va ichki muhit bilan bog'lab uni himoya qiladi.

Teri qoplami organizmni har qanday patogen mikroorganizm, bakteriya va boshqa yot ta'surotlardan himoya qiluvchi vositadir. Teridagi qabul qiluvchi nerv hujayralarining uchlari orqali ichki organlarni tashqi muhit bilan bog'lab, ularning bir butunligini ta'minlaydi. Teri qoplami elastik bo'lib, tanaga teri osti klechatkasi bilan birlashadi.

Hayvon terisi charmmo'yna va yelim ishlab chiqarishda xom ashyo sifatida ishlatiladi. Yangi shilingan teri tarkibida oqsillar, yog'lar, uglevodlar, mineral

moddalar, fermentlar mavjud, teri massasining 70% i suvdan iborat. Quyonlardan sifatli teri olish uchun ularni o'z vaqtida so'yish va terisini sifatiga etibor berish muhim ahamiyatga ega.

Quyonlarning terisi boshqa qishloq xo'jalik hayvonlarini terisiga mos holda ajratilsa tayyorlov idoralari qabul qilmaydi. Quyonlarni 3-4 oylik bo'lganda tanlab so'yish mumkin. Bunda quyonning tullash darajasi ular junini puflab ko'rib, terini rangiga qarab aniqlanadi. Bunda tullash jarayonida almashinayotgan jun o'zagi qismidagi terida ko'kimtir rang bilinadi. Terini so'yilganda keyin ichki tomonidan ham dog'lari bilinadi. junni tortib ko'rish bilan tullash jarayonini aniqlash mumkin, ya'ni tullayotgan jun tolalari qo'lga oson ilashadi. Quyonlarda tullash qish faslida sekinlashib noyabr, mart oyigacha so'yish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Quyon bolalarini yilning qaysi faslida, yoki davrida tug'ilganiga qarab tullash muddati tugab yana takrorlanishigacha bo'lgan davri har xil bo'ladi. Yilning boshida, ya'ni mart oyida tug'ilganlari uchun tullashni tugallanishiga 270 kun, iyun oyida tug'ilganlariga 190 kun, iyul oxirlarida tug'ilganlari uchun 150 kun muddat kerak.

Sakrash bo'g'unidan teri aylantirib kesilib, orqa oyoqni ichki tomonidan kesilib orqa chiqaruv teshigiga birlashtiriladi. Deyarli qolgan qismdagi teri qo'l bilan meshsimon ajratiladi. Dum umurtqa suyaklaridan ajratiladi. (Bundan oldin oldingi oyoqlardan ko'tarib qorni balandga silanib, siydikni chiqarish kerak). So'ngra teri pastga tortiladi. Qari quyonlarda quloq tog'ayi, ko'zlarining atrofi, burun va lablari pichoq yordamida oldingi oyoqlari kaft bug'unidan kesib quloq tog'aylari olinib kley tayyorlashga topshiriladi.

Ajratilgan teskari holatdagi meshsimon teri maxsus to'g'rilagichlarga kiydiriladi. To'g'rilagich uzunligi 100 sm, balandigi eni 5 sm, oxirgi eni 30 sm. gacha bo'ladi. Yog'ochdan yasab, ponali shaklda qulay, terini taranglashga ung'ay bo'ladi. Terini shamol tegadigan, soyada harorat 30⁰S, dan oshmaydigan joyda tik quritiladi. Qurishdan oldin teridagi yog' va et qoldiqlari utmas pichoq bilan dum tomonidan boshiga qarab tozalanadi. Dastlab ishlagan quyon terisining vazni 1,1 kg. dan kam bo'lmasligi lozim.

Yaxshi qurigan terilar taxtlanib tayyorlov idoralariga, yoki shartnoma asosida iste'molchilarga topshiriladi.

Quyon mo'ynasidan chiroylik palto, quloqli telpaklar, yoqaliq va bolalar po'stinlari tayyorlanadi. Quyonlarning charm-terisidan qo'lqoplar, sumkalar yengil oyoq kiyimlari kabilar tayyorlanadi. Quyon terisining tovarlik (mahsulotlik) xususiyatlarini uning o'lchami (yuza satxi), chidamliligi, vazni, jun tolalarining tig'izligi, havo o'tkazmovchanligi, tashqi ko'rinishi, rangi va boshqa shu kabi ko'p ko'rsatkichlar tashkil etadi. Quyon terisining o'lchami ko'zlar o'rtasidagi chiziqdan dum asosigacha bo'lgan uzunlik hisobida olinib "D" xarfi bilan Belgilansak:

D:2=0,5D nuqtadan enini o'lchanadi.

$Shx2=2Sh$ (chunki teri ikki qavat)

Agar terini umumiy yuzasini "P" bilan belgilasak:

$P=Dx2Sh$, ning SM^2 shaklidagi ifodasida bo'ladi.

Davlat andozalari (GOST 3136-37) talabiga ko'ra boshli va boshsiz.

Quyvon terilari quyidagi 3 ta guruhga bo'linadi.

Guruhlar	Quyvon terisining yuza satxi, sm^2	
	Bosh qismli	Bosh qismsiz
Alohida, (yirik)	1600 dan ziyod	1500 dan ziyod
Yirik	1300 dan 1600gacha	1200 dan 1500 gacha
Mayda	1300 va kam	1200 va kam

Davlat andozasiga ko'ra quyvon mo'yna terisi sifat ko'rsatkichlariga ko'ra 4 ta navga bo'linadi.

1. - navga terida qiltiq va tivit tolalari yetilgan terilar kiradi. Terini ichki tomoni toza bo'lishi kerak.

Ba'zan kamgina qiltiq va tivit tolalari yetilmagan, shuningdek ichki qismida ko'pchilik belgilari ozgina bor bo'lsada turining umumiy yuzasiga nisbatan 1% dan oshmasa xam 1 - navga o'tkaziladi.

2. - navga teridagi qiltiq va tivit tolalari to'liq yetilmaganlari kiradi. Terini ichki qismida to'liq yoki parchalardan iborat ko'kishlik belgilari mavjud bo'lsada, yag'rin qismi toza buganlari kiradi. Ba'zan - 1 - navga xos, lekin jun qoplami siyrak va yupqa terilar ham bu navga kiradi.

3. - navga quyvon mo'ynasidagi qiltiq va tivit tolalari to'la yetilmagan, terini etli qismi yoppasiga, yoxud parcha-parcha ko'kishlik ko'rinishidagi terilar kiradi.

4. - navga siyrak qiltiq va tivit tolasi, jadal tullash davrida suyib olingan terilar kiradi. Ichki et qismi xam to'liq yoki parcha – ko'kishlikka ega bo'lgan terilar kiradi.

Teri xom ashyosi sifatiga hayvon turi, vazni, uning yashash, saqlanish sharoiti, iqlim, ozuqa turlari ta'sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibrohimov Sh.I., Shodiyev N.Sh., Isayev M.I., Daminov A.S. "Sitologiya, gistologiya va embriologiya". Darslik. Toshkent, 2006 yil.
2. Shodiyev N.Sh., Dilmurodov N.B. "Sitologiya, gistologiya va embriologiya". Darslik. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2015 yil.
3. To'xtayev Q.R., Azizova F.X., Abduraxmonov M., va b. "Sitologiya, gistologiya va embriologiya". Darslik. "Tafakkur-bo'stoni" nashriyoti Toshkent, 2018 yil.
4. Histology, Cytology, Embryology: Textbook / I. V. Bobrysheva, S. A. Kashchenko. - Lugansk: "Knowledge", 2011.
5. Dilmurodov N.B., Eshmatov G.X. «Hayvonlar anatomiyasi» fanidan amaliy laboratoriya mashg'ulotlar bo'yicha o'quv qo'llanma. Toshkent, 2018 yil.
6. Dilmurodov N.B. Karimov M.G. Normurodova Z.F. «Hayvonlar morfologiyasi

- fanidan amaliy-laboratoriya mashg'ulotlari». Toshkent, 2018.
7. Babashev, A. Saparov, A. R. Rahmanov, O.A. Narzullayeva, F.S. 2022. Lite5ratu5re data of pat6homorphologyof joint diseases in horses. Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 2(11), 271-274.
 8. Normuradova Z.F. Karimov. M.G., Ibragimov B.Kh. Toxic Effect of Gossypol-Containing Food on Chickens. Jundishapur Journal of Microbiology Research Article Published online 2022 April. 7252 – 7257.
 9. Раҳмонов, Ў. А., Сапаров, А. Р., & Қахарова, М. К. (2022). Отларда йирингли конъюнктивитни даволаш. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 2(6), 405-408.
 10. O`A Rahmonov, NE Khudoynazarova, Karimov MG, Ibragimov BH, Morphofunctional Properties of the Adrenal Glands of Rabbits. Jundishapur Journal of Microbiology Research Article Published online 2022 April, 7245-7251.
 11. Раҳмонов, Ў. А., Сапаров, А. Р., & Азимова, Д. М. (2022). Катарал кератоконъюнктивитларни даволашда ноанъанавий усулларни қўллаш. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 2(6), 401-404.
 12. Normuradova, Z. F., & Arzikulova, S. M. (2022, May). QUYONLARNING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI. In E Conference Zone (pp. 44-47).
 13. Mirzoev, Z. R., Rakhmonov, R. A., & Khudoynazarova, N. E. (2021). Morphometric properties of the shoulder bone in the postnatal ontogenesis of rabbits in the meat direction. *Nveo-natural volatiles & essential oils Journal/ NVEO*, 15714-15717.
 14. Gulyamovich, M., & Hakimovich, I. B. (2021). Morphofunctional properties of the adrenal glands of rabbits. *Webology* (ISSN: 1735-188X), 18(1), 19-24.
 15. Yunusov, X. B., & Turdiyev, A. K. (2022). QUYONCHILIKDA VETERINARIYA SANITARIYA GIGIYENASI TADBIRLARI. AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIIY JURNALI, 1312-1322.
 16. OZ Ergasheva, S Sh Beknazarov 2023 RESPUBLIKAMIZDA PARVARISHLANAYOTGAN QUYON ZOTLARI VA ULARNING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 418-424.
 17. Turdiyev, A. K., Raxmonov, D. A., Beknazarov, S. S., & Raxmonov, U. A. (2023). NUTRIYACHILIKVAMO 'YNACHILIKNIRIVOJLANTIRISHDAVETERINARIYASANITARIYAGIGIY ENASITADBIRLARI. *Scientific Impulse*, 1(9), 542-548.
 18. Каримов, М. Г., Избасаров, У. К., & Каримов, Ж. М. (2021). Применение отечественных фитопрепаратов при травматических повреждениях у лошадей.
 19. Нурмухамедов, Б. М., Дилмуродов, Н. Б., Эшбуриев, С. Б., & Рахмонов, У. А. (2019). Морфофункциональная характеристика яичников у коз.
 20. Choriyev, O., Dilmurodov, N., Babanazarov, E., Karimov, M., Mukhtarov, B., & Yakhshiyeva, S. (2024). Morphological characteristics of skin thickness in postnatal ontogenesis of karabayir horses. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 126, p. 01008). EDP Sciences.
 21. Mirzoyev, Z. R., & Plyosova, M. N. (2024). QUYONLAR TERI QOPLAMASINING GISTOMORFOLOGIK TUZILISHI. *Modern education and*

- development, 9(1), 31-38.
- 22.Rajabovich, M. Z. (2023). TURLI ZOTLI QUYONLAR POSTNATAL ONTOGENEZIDA SON SUYAGINING CHIZIQLI O'LCHAMLARI. TADQIQOTLAR, 28(5), 181-185.
- 23.Yunusov, X. B., Dilmurodov, N. B., & Beknazarov, S. S. (2024). BIR KUNLIK QUYONLARDA BUYRAK USTI BEZINING ANATOMO-MORFOLOGIK KO'RSATKICHLARI. PEDAGOG, 7(2), 33-37.
- 24.Rakhmonov, U. A., Omonov, Y. T., & Abdusamad o'g'li, U. H. (2023). ANATOMO-MORPHOLOGICAL INDICATIONS OF THE ADRENAL GLAND IN SIX-MONTH-OLD GRAND BREED RABBITS. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 10(12).
- 25.Ashirovich, R. O. T., Eshmuratovna, K. N., Gulyamovich, K. M., & Hakimovich, I. B. (2022). Morphofunctional properties of the adrenal glands of rabbits.
- 26.Babashyev, A. I., Qodirova, S. N., & Xursanmurodova, D. (2022). VETERINARY SANITARY MEASURES IN RABBIT FARMING. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 2(13), 168-170.
- 27.Тошмурадов, Ж. Т., Очиллов, У. А., & Каримов, М. Г. (2021). Лечение ран пальцев лошадей.